

O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK VA YALPI ICHKI MAHSULOTNING O'SISHI, TOSHKENT SHAHRINI OPTIMALLASHTIRISH VA VAQT QADRI

Rixsiboev Abdumurod Abduolim o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14216424>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda ishsizlik va yalpi ichki mahsulotning o'sishi, Toshkent shahrini optimallashtirish va vaqt qadri masalalariga to'xtalib o'tilgan. Maqola davomida ijtimoiy va tabiiy resurslarning inson hayotida muhimligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy va tabiiy resurslar, vaqt qadri, ishsizlik, yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

UNEMPLOYMENT AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN, OPTIMIZATION OF TASHKENT CITY AND VALUE OF TIME

Abstract. This article discusses the issues of unemployment and GDP growth in Uzbekistan, optimization of Tashkent city and value of time. The article highlights the importance of social and natural resources in human life.

Keywords: social and natural resources, value of time, unemployment, GDP growth.

БЕЗРАБОТИЦА И РОСТ ВВП В УЗБЕКИСТАНЕ, ОПТИМИЗАЦИЯ ГОРОДА ТАШКЕНТА И ЦЕННОСТЬ ВРЕМЕНИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы безработицы и роста ВВП в Узбекистане, оптимизации города Ташкента и ценности времени. В статье подчеркивается значение социальных и природных ресурсов в жизни человека.

Ключевые слова: социальные и природные ресурсы, временная стоимость, безработица, рост ВВП.

Inson hayoti uchun ijtimoiy va tabiiy resurslar juda muhim hisoblanadi, masalan oziq ovqatlar, kiyim kechaklar, tok va gaz manbalari kerak bo'ladi. Albatta biz ibtidoiy jamiyatda emas ijtimoiy jamiyatda yashayapmiz. Shuning uchun insonlarga yuqoridagi inson hayoti omili bilan bog'liq bo'lgan resurslar sotib olishimiz uchun moddiy boyliklar va sarmoya kerak bo'ladi.

Insonlarga moddiy boyliklar va sarmoya yig'ish uchun esa ish yoki biznes loyihalar kerak bo'ladi, xalqning quyi qatlami uchun tabiiyki biznes loyihalar mos kelmaydi, shunday ekan har bir insonga ro'zg'or tebratish uchun ish kerak. O'zbekistondagi ishsizlik darajasi 2023-yil yakuniga ko'ra 6,8%ni tashkil etib avvalgi yilga nisbatan 2,1%ga pastlagan.

Endi bu ko'rsatkichni hududlar kesimida qarasak ishsizlik eng baland hududlar Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlari, hududida yuqori cho'llanish va sanoat zonalari past bo'lganligi hisobiga Qoraqalpog'iston va Navoiy viloyatlarini ishsizlik eng past hududga esa tabiiyki Toshkent shahri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Toshkent shahrida nima uchun ishsizlik darajasi past?

Chunki ko'plab sanoat zonalari, zavod fabrikalar, yirik katta bozorlar ishlab chiqaruvchi sexlar Toshkent shahrida joylashgan. Insonlar pul topish maqsadida Toshkentga kelishadi MCHJ yoki zavod fabrikalar bo'lsin yoki bozorlardagi oldi sotti, kunlik ish bo'lsa xam ish qidirib kelgan odam albatta topadi, lekin bu yerda vaqt omili katta rol o'ynaydi ishga(smenaga) yoki kunlik ishga

kelayotgan odam yo‘l uzoqligi hisobini olib barvaqt yo‘lga otlanadi, qaytayotganda esa kech qaytadi. Uzoqdan markazga qatnab ishlovchilarning 4-5soat vaqtlari yo‘lga sarflanadi ijarada turay desa ijara puli qimmat.

Toshkent shahri bir necha yildan buyon xavo ifloslanish darajasi yuqori bo‘lgan shaharlar ro‘yxatida yuqori o‘rinlarda turipti. Xavo ifloslanishi darajasini oshishi inson salomatligiga va poytaxt bo‘lganligi uchun davlat imidjiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xo‘sh unda nima qilsak muammoni ijobiy hal qilgan bo‘lamiz? Birinchi navbatda viloyatlardagi unumsiz yerlarga o‘zidan zaxarli moddalar chiqaruvchi zavodlarni, viloyatlardagi chekka hududlarga ishlab chiqaruvchi seh fabrikalarni Toshkent shahri hududidan chiqarishimiz kerak. Shunda chekka hududlarda va ishsizlik yuqori bo‘lgan viloyat odamlari ish bilan ta’minlanadi, yo‘lga ortiqcha vaqt sarfidan halos bo‘lib unumli maishiy hayotga yondashishadi.

Chet davlatlarda ishlayotgan migrantlarning o‘rtacha yoshi 18-45 yosh hisoblandi. Pul topish maqsadida kimdur oilasini, yana kimdir yosh go‘dak farzandlarini, kimdur yangi oila qurib, kimdur oila qurish to‘y hasham deb ish izlab chet elga ketadilar.

Natijada migrantlar o‘zlari ishlayotgan zavod fabrikalar sehlar orqali o‘sha davlat budjeti daromadi oshishiga xizmat qilishadi, agar ishlab chiqarish sanoat zonalari ishsizlik yuqori joylarga ko‘chirib joylashtirilsa har bir migrant ko‘p pul topmasa ham oilasi yonida erkin va xavfsiz hayot kechirishni hohlaydi o‘zimizda ishlaydi.

Natijada ishlab chiqarish sanoati rivojlanadi va eksport hajmi oshadi bu esa davlat yalpi ichki mahsulot oshishiga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib turadigan yoki o‘zimiz guvoh bo‘ladigan Toshkent shahar ichidagi va shaxarga kirish chiqishda yuzaga kelayotgan tirbandlik masalasi ham Toshkent shahrini optimallashtirish orqali hal bo‘ladi.

Toshkent shahri zaxarli havo chiqaruvchi zavodlardan, yuzaga keladigan yuqori tirbandliklardan halos bo‘lgan, istirohat bog‘lari yashil, tarixiy, madaniy zonalari bo‘lgan davlat imidjini ko‘rsatadigan poytaxt shaxar bo‘lishi kerak.

Xulosa: Insonlarning pul topish maqsadida oilasidan uzoqda chet davlatlardagi ketgan vaqti, yoki Toshkent shahriga kelib ketuvchilarning 4-5soatlik yo‘lga ketayotgan vaqti, shaxar ichida yuzaga kelayotgan tirbandlik masalasini yechish inson qadri vaqtini qadrlashga xizmat qiladi.

Va mana shu sarflanayotgan ortiqcha vaqtlarni insonlar oila va yaqinlari davrasida o‘tqazishi odamlarda baht indeksini oshiradi.